INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

YASHIL MOLIYA VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK INVESTITSIYALARNING ROLI

Shovkatov Nodirjon Ne’matjon o‘g‘li
TDIU, "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasi dotsenti
e-mail: phdshovkatov@gmail.com
+998(99)-909-38-63
Jumanova Shaxlo Baxodir qizi
TDIU, "Bank ishi" fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: shahlojumanovabahodirovna@gmail.com
+998(90)-240-29-07

ANNOTATSIYA.
Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda yashil moliya instrumentlarining o‘rni va ekologik investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi va yashil obligatsiyalar bozorining shakllanish jarayonlari tahlil qilingan. ESG tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari baholangan. Natijada, O‘zbekistonda yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik loyihalarni banklar orqali rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Yashil moliya, barqaror o‘sish, ekologik investitsiya, yashil obligatsiyalar, ESG, dekarbonizatsiya, qayta tiklanuvchi energiya.
ABSTRACT.
This article examines the role of green financial instruments and the economic efficiency of environmental investments in ensuring sustainable growth of the Uzbek economy. The study analyzes the dynamics of investments in renewable energy sources and the formation of the green bond market in our country. The possibilities of decarbonizing the economy and increasing investment attractiveness through the introduction of ESG principles are assessed. As a result, practical proposals have been developed for the development of green financial infrastructure in Uzbekistan and the promotion of environmental projects through banks.
Keywords: Green finance, sustainable growth, environmental investment, green bonds, ESG, decarbonization, renewable energy.
АННОТАЦИЯ.
В данной статье рассматривается роль «зеленых» финансовых инструментов и экономическая эффективность экологических инвестиций в обеспечении устойчивого роста экономики Узбекистана. Анализируется динамика инвестиций в возобновляемые источники энергии и формирование рынка «зеленых» облигаций в стране. Оцениваются возможности декарбонизации экономики и повышения инвестиционной привлекательности за счет внедрения принципов ESG. В результате разработаны практические предложения по развитию «зеленой» финансовой инфраструктуры в Узбекистане и продвижению экологических проектов через банки.
Ключевые слова: Зеленое финансирование, устойчивый рост, экологические инвестиции, зеленые облигации, ESG, декарбонизация, возобновляемая энергия.

KIRISH.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati iqtisodiy taraqqiyot va tabiat muvozanatini saqlash borasida jiddiy sinovlar qarshisida turibdi. Insoniyatning uzoq yillar davomida tabiat resurslaridan ayovsiz foydalanishi, faqat moddiy foyda ketidan quvib, atrof-muhit musaffoligiga e'tibor bermasligi oqibatida global iqlim o'zgarishlari yuzaga keldi. Shu bois, dunyo iqtisodiyotini an'anaviy usullardan voz kechib, tabiatga zarar yetkazmaydigan, ya'ni "yashil" tamoyillar asosida qayta qurish bugunning eng kechiktirib bo'lmas vazifasiga aylandi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham bu masala o'ta dolzarbdir. Zero, mamlakatimiz iqlimi quruq va suv resurslari cheklangan mintaqada joylashgan bo'lib, havo haroratining ko'tarilishi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda elektr energiyasi ishlab chiqarishning qariyb 80-85 foizi hamon tabiiy gaz va ko'mirni yoqish hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu esa havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini oshirib, iqtisodiyotimizning energiya sig'imini rivojlangan davlatlarga nisbatan 2-3 barobar yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu vaziyatni o'zgartirish maqsadida davlatimiz tomonidan tizimli choralar ko'rilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-447-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" bu boradagi ishlarning poydevori bo'ldi. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 25 gigavattga yetkazish va issiqxona gazlari tashlamalarini 35 foizga kamaytirish kabi ulkan maqsadlar belgilab berildi.

Bunday ulkan marralarga erishish uchun esa moliya tizimini tubdan isloh qilish talab etiladi. *"Yashil moliya"* — bu ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan investitsiyalar, kreditlar, obligatsiyalar va sug'urta mahsulotlari majmuidir. U shunchaki mablag' ajratish emas, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni his qilgan holda, ekologik toza texnologiyalarga, quyosh va shamol energetikasiga, suvni tejovchi tizimlarga sarmoya kiritish demakdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi va ekologik musaffolik o'rtasidagi bog'liqlik masalasi jahon iqtisodiyot fanining eng ko'p muhokama qilinadigan yo'nalishlaridan biridir. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: xalqaro nazariy qarashlar va milliy iqtisodiyotga moslashtirilgan tadqiqotlar.

Xalqaro nazariy asoslar. Yashil moliya tushunchasini tizimli ravishda tadqiq etgan dastlabki olimlardan biri Nikolas Stern hisoblanadi. U o'zining 2006-yilda e'lon qilingan *"Iqlim o'zgarishi iqtisodiyoti" (The Economics of Climate Change)* nomli mashhur hisobotida ekologik investitsiyalarni kechiktirish kelajakda jahon iqtisodiyoti uchun YaIMning 5 foizidan 20 foizigacha bo'lgan yo'qotishlarga olib kelishini matematik modellar orqali isbotlab bergan. Sternning fikricha, bugungi kunda tabiatni asrash uchun sarflangan har bir dollar kelajakdagi katta iqtisodiy inqirozlarning oldini oluvchi eng samarali sarmoyadir1.

Shuningdek, iqtisodchi olim Maykl Porter o'zining *"Porter gipotezasi"* orqali ekologik cheklovlar va investitsiyalar korxonalarning raqobatbardoshligini tushirmasligini, aksincha, ularni yangi texnologik yechimlar izlashga undashi orqali samaradorlikni oshirishini ilgari surgan. Bu qarash bugungi kunda xalqaro sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy tadqiqotchilarning qarashlari. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. Tursunov o'zining ilmiy ishlarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yashil taraqqiyot yo'liga o'tkazishning institutsional asoslarini tadqiq etgan. U yashil iqtisodiyotga o'tishda nafaqat texnologik

1 The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press. – P. 25-30.

yangilanish, balki moliyaviy rag‘batlantirish tizimini (soliq imtiyozlari, past foizli kreditlar) tubdan isloh qilish zarurligini ta’kidlaydi2.

Professor A. Alimov esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyatini yoritib bergan. Uning tahlillariga ko‘ra, O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgani sababli, ushbu sohalarga kiritilgan ekologik sarmoyalar o‘zini oqlash muddati bo‘yicha boshqa tarmoqlarga nisbatan samaraliroqdir.

Xalqaro moliya institutlari tahlili. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining hisobotlarida (2023-2024 yillar) O‘zbekiston uchun "yashil o‘sish"ning eng muhim bo‘g‘ini sifatida suv resurslarini samarali boshqarish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatilgan. Xususan, Jahon bankining "O‘zbekiston: iqlim va rivojlanish bo‘yicha mamlakat hisoboti"da keltirilishicha, iqtisodiyotni "yashillashtirish" uchun 2050-yilgacha mamlakatga taxminan 144 milliard dollar miqdorida sarmoya talab etiladi3.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil moliya — bu shunchaki xarajat emas, balki iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlovchi strategik resursdir. Biroq, mahalliy adabiyotlarda "yashil obligatsiyalar" va ESG (ekologik-ijtimoiy boshqaruv) tamoyillarining bank tizimiga ta’siri hali yetarlicha ochib berilmagan bo‘lib, ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola metodologiyasida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-statistik qiyoslash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning ilmiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yillik hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari, Jahon bankining (World Bank) iqlim bo‘yicha tahliliy sharhlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy nashrlarida chop etilgan tadqiqotlar tashkil etadi.

Metodologik yondashuv mamlakatimizdagi yashil investitsiyalar dinamikasi va barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida miqdoriy tahlil usuli yordamida 2021–2025-yillar oralig‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va suv tejovchi texnologiyalarga yo‘naltirilgan sarmoyalarning samaradorligi o‘rganilgan. Bu esa iqtisodiyotni "yashillashtirish" jarayonida moliya tizimining samaradorligini baholash hamda mavjud ekologik-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyot bosqichiga o‘tishi bevosita ekologik sarmoyalarning samaradorligi va yashil moliya tizimining naqadar tizimli yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liqdir. Tadqiqot doirasida olingan miqdoriy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2021–2025-yillar oralig‘ida mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan "yashil" sarmoyalar hajmi jami investitsiyalarning tarkibida sezilarli darajada o‘sib, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 28 foizni tashkil etdi.

1. Energetika sektori va dekarbonizatsiya tahlili.

Tahlillarimizga ko‘ra, yashil investitsiyalarning eng katta ulushi — 58,4 foizi energetika sektoriga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Energetika vazirligining 2024-yil yakuniy hisobotiga ko‘ra, joriy yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvati 4 GVtga yetkazildi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyuldagi "Yashil moliya" instrumentlarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-241-son qarori.

3 The World Bank. (2023). Uzbekistan: Country Climate and Development Report (CCDR). – P. 48.

Xususan, Navoiy viloyatidagi "Nur Navoiy" (100 MVt) va Surxondaryodagi "Sherobod" quyosh fotoelektr stansiyalari yiliga 1,2 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Bu esa yiliga 600 million kub metr tabiiy gazni tejash bilan birga, atmosferaga 1,1 million tonna zaharli gazlar chiqishining oldini olmoqda[i]4.

2. Yashil obligatsiyalar va qishloq xo‘jaligi samaradorligi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda chiqarilgan 2,5 trillion so‘mlik yashil suveren obligatsiyalar mablag‘lari hisobidan amalga o

shirilgan loyihalar o‘zining yuqori iqtisodiy samarasini berdi. Quyidagi jadvalda ushbu mablag‘larning yo‘nalishlar kesimidagi taqsimoti va natijasi tahlil qilingan.

1-jadval.

Yashil obligatsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar samaradorligi5.

Loyiha yo`nalishi	Ajratilgan mablag` (%)	Erishilgan natija (2024-y.)
Suv techovchi texnologiyalar	35%	172 ming gektar maydon qambrab olindi
Toza ichimlik suvi ta`minoti	20%	1.2 mln aholi qamrovga olindi
Atrof-muhitni ko`kalamzorlashtirish	20%	120 mln ko`chat ekildi (Yashil makon)
Temir yo`llarni elektrlashtirish	25%	Yoqilg`i sarfi 15% ga kamaydi


3. ESG standartlari va bank tizimidagi o‘zgarishlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston bank tizimida "yashil kreditlash" hajmi 2024-yilga kelib 7,2 trillion so‘mga yetdi[ii]6. Markaziy bank va xalqaro moliya institutlari (YTTB, OTB) hamkorligida ajratilgan ushbu mablag‘larning 40 foizi kichik va o‘rta biznes subyektlarining energiya samarador uskunalar sotib olishiga yo‘naltirilgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bunday texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda mahsulot tannarxi energiya sarfining kamayishi hisobiga o‘rtacha 12-15 foizga arzonlashgan. Bu esa milliy mahsulotlarimizning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy faktorga aylandi.

4 O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik sarhisob hisoboti. – B. 12-15.

5 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Yashil suveren obligatsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar natijadorligi" to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

6 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bank tizimida barqaror moliyalashtirish sharhi – 2024". – B. 28.



1-rasm. O`zbekistonda yashil investitsiyalarning yo`nalishlar bo`yicha taqsimoti (2024-yil holatiga)7.

4. Hududiy kesimdagi investitsion natijalar.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida (142-bet) viloyatlar kesimida yashil investitsiyalar hajmini tahlil qilganimizda, Navoiy (32%), Buxoro (22%) va Jizzax (18%) viloyatlari yetakchilik qilayotganini ko‘ramiz. Bu hududlarda ekologik sarmoyalar hisobiga yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni 2024-yilning birinchi yarmida 15 mingdan oshdi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va uslubiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliya tizimi shunchaki nazariy tushuncha emas, balki iqtisodiyotning real sektorlarida barqaror o‘sishni ta'minlovchi amaliy mexanizmdir. Zero, dunyo miqyosidagi tadqiqotlar va mahalliy tajriba uyg‘unligi ekologik sarmoyalarning uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy foydani kafolatlashini isbotlamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur'atlarini ta'minlashda yashil moliya instrumentlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator tizimli islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Avvalo, mamlakatimizda "yashil" loyihalarni saralashning aniq milliy mezonlarini, ya'ni Milliy yashil taksonomiya tizimini xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish lozim. Bu investitsiyalarning shaffofligini ta'minlash bilan birga, xalqaro investorlar va moliya institutlarining milliy bozorimizga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tijorat banklari va yirik sanoat korxonalari uchun majburiy ESG hisobdorligini joriy etish, milliy kompaniyalarimizga xalqaro fond birjalaridan arzon va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, energetika samaradorligini oshirgan va o‘z ishlab chiqarish quvvatlarini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tkazgan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda, mulk va yer solig‘idan tabaqalashgan imtiyozlar paketini ishlab chiqish, iqtisodiyotning real sektorida transformatsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Bank tizimida yashil kreditlarni qayta moliyalashtirish bo‘yicha maxsus davlat kafolat jamg‘armasini tashkil etish esa, ekologik innovatsiyalarning yuqori boshlang‘ich xarajatlari bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni sug‘urtalash orqali banklarning loyihalarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Oliy ta'lim tizimida "Yashil moliya" mutaxassislarini tayyorlashni kuchaytirish va bank xodimlari uchun ekologik loyihalarni baholash bo‘yicha xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish sohadagi kadrlar salohiyatini mustahkamlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan fermer xo‘jaliklari uchun subsidiyalarni faqat yashil moliya kanallari orqali ajratish mexanizmini

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil I yarim yillik hisoboti

yo‘lga qo‘yish esa resurslardan maqsadli va samarali foydalanish ustidan monitoring tizimini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil moliya instrumentlari — bu milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va energetika xavfsizligini ta’minlashning strategik poydevoridir. Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, energetika va qishloq xo‘jaligida yashil sarmoyalarning multiplikativ samarasi yuqori bo‘lib, ular nafaqat resurslarni tejashga, balki uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tahlillar natijasida aniqlanganidek, energetika sohasini modernizatsiya qilish hisobiga yiliga 1,2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash hamda qishloq xo‘jaligida suv sarfini 40 foizga qisqartirish mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda ulkan zaxira bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilayotgan mexanizmlarning hayotga tatbiq etilishi O‘zbekistonning mintaqaviy yashil investitsiyalar markaziga aylanish salohiyatini ro‘yobga chiqaradi. Yakuniy xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, yashil moliya — bu kelajak iqtisodiyotining tili va poydevoridir. Bugungi kunda ushbu sohaga yo‘naltirilayotgan har bir sa’y-harakat nafaqat bugungi iqtisodiy barqarorlikni, balki kelajak avlodlar uchun musaffo atrof-muhit va barqaror iqtisodiy muhitni kafolatlaydi. Binobarin, O‘zbekistonning yashil taraqqiyot yo‘li — kuchli iqtisodiyot, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni uyg‘unlikda ta’minlovchi yagona to‘g‘ri yo‘nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida. (PF-158-son). [Lex.uz]

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Yashil moliya" instrumentlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (PQ-241-son). [Lex.uz]

3. The World Bank. Uzbekistan: Country Climate and Development Report (CCDR). (2023). [worldbank.org] – 45-50 bet

4. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik sarhisob hisoboti. [minenergy.uz] – 18-22 bet.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Yashil obligatsiyalar bo‘yicha milliy hisobot. [mf.uz] – 15-20 bet.